

## QAHRAMONNING MADANIY QIYOFASINI OCHISHDAGI TAKRORNING AHAMIYATI TOG'AY MURODNING "OTAMDAN QOLGAN DALALAR" ASARI MISOLIDA

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12520115>

**Umurzakova Umidaxon Ahmadjon qizi**

*TATU Farg'ona filiali O'zbek tili va gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi*

### **Annotatsiya**

*Bunda T.Murodning "Otamdan qolgan dalalar" asarida qo'llanilgan takrorning asar qahramoni madaniy qiyofasini ochishdagi o'rni tahlil etilgan. Asarda eng ko'p uchragan takror – sintaktik takror haqida mulohazalar berilgan.*

### **kalit so'zlar**

*takror, sintaktik takror, gorizontaal va vertikal takror, anaforik takror, aralash takror, madaniy qiyofa,*

Takror sintaktik-stilistik figura sifatida poetik nutq stilida o'ziga xos maxsus xarakter kasb etadi, takror prozaik janrda yaratilgan asarlar tilida poetik nutq stiliga qaraganda, ancha kam qo'llaniladi. Takrorning funksiyasi avtor nutqini ta'sirchan etish fikriy konkretlashtirish va eng muhimi, unga tinglovchi yoki o'quvchini ishontira olish kabi xususiyatlarni ifodalashdan iborat bo'ladi.<sup>137</sup>

Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" asarida esa takror alohida ahamiyatga ega. Bizga ma'lumki, "Takror-matniy, kompozitsion yoki tematik birliklarning ma'lum badiiy-estetik maqsadlarni ko'zlagan holda takrorlanishidir"<sup>138</sup>

Eng keng tarqalgan takror – bu sintaktik takror. "Otamdan qolgan dalalar" asarida takrorning anafora, epifora, infora, aralash takror kabi ko'rinishlarini uchratish mumkin. Ular asarda ma'lum bir stilistik maqsadni yuzaga chiqaradi.

Takrorlarning qo'llanish usuliga ko'ra, ikki turi: gorizontaal va vertikal turlari ajraladi. Gorizontaal takror bir sodda gap doirasida bo'ladi.<sup>139</sup> Masalan,

**Qizlar bir xushro'y bo'ladi, bir xushro'y bo'ladi! (70-bet)<sup>140</sup>**

<sup>137</sup> A.Mamajonov.Takror va uning sintaktik-stilistik funksiyasi.O'zbek tili va adabiyoti.1986.5-son.

<sup>138</sup> D.Quronov va boshqalar.Adabiyotshunoslik lug'ati.T.: 2010.

<sup>139</sup> A.Mamajonov.Takror va uning sintaktik-stilistik funksiyasi.O'zbek tili va adabiyoti.1986.5-son.

<sup>140</sup> T.Murod.Otamdan qolgan dalalar.1994. Bundan keyin sahifalari beriladi.

Vertikal takror esa qo'shma gaplarda, periodlarda, super sintaktik butunliklarda ularni tashkil etuvchi qismlarning har birining bir xil o'rinlarida takrorlanadi. Ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Anaforik takror-sintaktik butunlikni tashkil etuvchi qismlarning bir xil grammatik shaklda boshlanish usuli.

a) so'z takrori:

**Shoirlar** o'q ariq adog'ida oyoq ildi.

**Shoirlar** oyoqlibos qoqdi. **Shoirlar** cholvor qoqdi. **Shoirlar** ko'ylak pufladi.

**Shoirlar** biznikiga yo'l oldi. (163-bet)

b) juft so'z bilan:

**El-yurt** otamiz qoni to'kilmish tuproqni devor bilan o'rab oladi.

**El-yurt** otamiz jon bermish tuproq uzra oppoq yalov qadab oladi.

**El-yurt** Aqrab shahid poyidan o'ta-o'ta bir oyoq ilab oladi. (44-bet)

d) takror so'z bilan:

**Kuydi-kuydi** - ayolimni tani kuydi.

**Kuydi-kuydi** - meni bag'rim kuydi.

**Kuydi-kuydi** - bolalarimni sho'ri kuydi. (176-bet)

f) so'z birikmasi bilan:

**Oppoq soch odam** rangi o'chadi. Qizil bayroq oldiga qaytib boradi.

**Oppoq soch odam** bolalarga o'ychan - o'ychan boqib qoladi. (61-bet)

g) gapni takrorlash orqali:

**Bet-boshim bet- bosh bo'lmadi** - darz-darz yer bo'ldi. **Bet-boshim bet- bosh bo'lmadi** - qaqroq-qaqroq yer bo'ldi. **Bet-boshim bet- bosh bo'lmadi** - sho'r-sho'r yer bo'ldi. (86-bet)

2. Epiforik takror - sintaktik butunlikni tashkil etuvchi qismlarning bir xil grammatik shaklda tugallanish usuli.

a) so'z bilan:

Men tag'in-da yaqin borib **qarayman**. Ko'zlarimni artib-artib **qarayman**. (72-bet)

b) so'z birikmasi bilan:

Ayolimiz sochlari loy tegmasin uchun soch turmaklab-soch turmaklab **loy tepdi**. Ayolimiz ro'moli bilan bel boylab-bel boylab **loy tepdi**. Ayolimiz ko'ylak etaklari loy botmasin uchun qo'shqo'llab etak ko'tarib-qo'shqo'llab etak ko'tarib **loy tepdi**. (133-bet)

3. Inforik takror - sintaktik butunlikni tashkil etuvchi qismlar o'rtasida bir xil grammatik shaklning aynan takrorlanishi.

Kaftlarimni **qayroqtosh bilan** qirdim. Barmoqlarimni **qayroqtosh bilan** ishqaladim.(136-bet)

4. Aralash takror - sintaktik butunlikni tashkil etuvchi qismlarning bir xil grammatik shaklda boshlanishi va tugallanishi. Bu asarda eng ko'p qo'llangan takror turidir.

**Men g'o'zalarimga bosib-bosib azot berdim.**

**Men g'o'zalarimga bosib-bosib fosfor berdim.**

**Men g'o'zalarimga bosib-bosib kaliy berdim. (143-bet).**

Aralash takror qo'llangan o'rinlarda ma'nosi bir-biriga yaqin so'zlardan foydalanish ham T.Murodning o'zgacha uslubidir:

**Emish-emish - bir ajin bir qayg'uni bildirar emish.**

**Emish-emish - bir ajin bir dardni bildirar emish.**

**Emish-emish - bir ajin bir armonni bildirar emish.(121-bet)**

Xulosa qilib aytganda, "Otamdan qolgan dalalar" asarida qo'llangan sintaktik takror elementlari muallif nutqini ta'sirchan etish, fikrni ta'kidlab ko'rsatish, ohangdorlikni oshirish orqali kitobxon uchun voqelikni sodda va tushunarli bayon etish vazifalarini bajargan, shu bilan birgalikda qahramonning madaniy qiyofasini ochib beruvchi vositaga aylangan.